

Ish kunining davomiyligi 8 soatdan, ish haftasining davomiyligi esa – 40 soatdan oshmasligi kerak. Ish vaqtidan tashqari mehnat uchun qo'shimcha to'lovlar belgilanadi (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 152, 153 va 154 moddalariga muvofiq).

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlaydigan har bir ishchi yillik to'lanadigan ta'tilga chiqishga (kamida 28 ish kuni), kasallik ta'tiliga chiqishga (kasal bo'lgan taqdirda) va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilinishi huquqiga ega (RF MKning 115, 183, 327.3 moddalari);

Rossiyada qarz olish mehnati (ish beruvchi tomonidan o'z ishchilarining boshqa tashkilotlarga mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan yuborilishi) taqiqlanadi. Faqat xususiy bandlik agentliklari sifatida ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar o'z ishchilarining mehnatini boshqa tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga taqdim etish huquqiga ega, biroq bunda ular quyidagilarni amalga oshirishlari majbur:

- chet ellik ishchi bilan tuziladigan mehnat shartnomasida uchinchi shaxsda ishlarni bajarish ehtimolini ko'rsatish;
- uchinchi shaxsda islashga yuborilgan hollarda ishchi bilan qo'shimcha bitim tuzish.

Agar siz xususiy bandlik agentligiga murojaat qilsangiz, bunday shartlar sizning mehnat shartnomangizda ko'rsatilganligiga ishonch hosil qiling.

Ish beruvchining majburiyatlari (RF MKning 22-moddasiga muvofiq):

- ish haqini sizga kechikishlar va ajratmalarsiz to'lash;
- mehnat xavfsizligi me'yorlariga mos keladigan ish joyini ta'minlash;
- sizga turar joy berilgan hollarda - mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent muddati davomida RF hududida vaqtinchalik yashash muddatini uzaytirish;
- tashkilotda qabul qilingan maxsus qoidalar va tartiblar haqida sizga xabar berish;
- ishlab chiqarish jarohati va baxtsiz hodisa yuz berganda - sizga yetkazilgan zararni qoplash;
- mehnat jarayonida chet ellik ishchilarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.

Sizning huquqlaringiz (RF MKning 21-moddasiga muvofiq):

- hayot va sog'liq uchun xavfli ishlarni bajarishdan bosh tortish;
- sizga mehnat shartnomasining nusxasini, hisob-kitob varaqalarini, ish haqini to'lash muddatlari va miqdori to'g'risidagi boshqa ma'lumotnomalarni 3 ish kuni ichida taqdim etishni talab qilish;
- o'z huquqlarini himoya qilish uchun Davlat mehnat inspeksiyasi, Prokuratura va sudga murojaat qilish;
- 3 oydan ortiq vaqt mobaynida ish haqi kechiktirilgan taqdirda siz Sankt-Peterburg Tergov qo'mitasi organlariga jinoyat haqida ariza topshirishingiz mumkin.

Mehnat qonunchiligiga muvofiq, sizga ish haqi to'lanmagan yoki siz bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan paytdan e'tiboran 3 oy o'tgunga qadar sudga murojaat qilish huquqiga egasiz. E'tiborli bo'ling va zarur bo'lgan hollarda, sudga o'z vaqtida murojaat qiling (RF MKning 392 moddasi).

FOYDALI KONTAKTLAR

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – «Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!»: migrantlar uchun Sankt-Peterburg Hukumatining Internet-resursi.

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/ugolki-migranta/ - «Migrant burchagi» («Уголок мигранта») axborot punkti bilan jihozlangan Sankt-Peterburgning kutubxonalari tarmog'i ro'yxati

migrussia.ru - «Migratsiya va migrantlar: axborot portali» (Sankt-Peterburg va Rossiyaning boshqa hududlarida moslashish va huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlar)

Sankt-Peterburgdagi Davlat mehnat inspeksiyasi (Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге)

198095, Sankt-Peterburg shahri, Zoya Kosmodemyanskaya ko'chasi, 28-a uy
8 (812) 746-59-86
Sayt: git78.rostrud.ru

Sankt-Peterburg prokuraturasi (Прокуратура г. Санкт-Петербурга)

Qabul qilish manzili: Pochtamtkskaya ko'chasi, 1 uy
Yozma murojaatlar: 190000, Sankt-Peterburg, Pochtamtkskaya ko'chasi, 2/9 uy
Navbatchining telefoni – 8 (812) 315-48-53
Sayt: procspb.ru

Rossiya Federatsiyasi Tergov qo'mitasining Sankt-Peterburg shahri bo'yicha Bosh tergov boshqarmasi (Главное Следственное Управление Следственного комитета РФ по г. Санкт-Петербургу) 190000, Rossiya, Sankt-Peterburg, Moika daryosi qirg'og'i, 86-88

Ishonch telefoni: 8 (812) 571-00-40
Navbatchining telefoni: 8 (812) 570-66-71
Sayt: spb.sledcom.ru/

Sankt-Peterburg sudlari

Sayt: courts.spb.ru

BF «PSP-fond» (huquqiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha bepul maslahat) Murojaatlar uchun telefon: +7 (812) 337-57-85, +7 953 141 31 09

Sayt: psp-f.org, migrussia.ru
Ijtimoiy tarmoqlar: vk.com/pspfond

Qizil Xochning axborot-maslahat markazi (chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga bepul maslahat berish)

Manzil: Krasniy Tekstilshik ko'chasi, 15 uy, 1-qavat (qabul oynasi) «Ishonch telefoni» raqami: 8 (800) 333-00-16
Sayt: spbredcross.org

Миграционное и трудовое законодательство. Краткая информация для трудовых мигрантов. (на узбекском языке)

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»

Автор-составитель: Якимов А.Н.

Тираж 1500 экз.

Изготовлено по заказу СПб ГКУ «СПб Дом Национальностей» при поддержке Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге.



Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге



Migratsiya va mehnat qonunchiligi

MEHNAT MIGRANTLARI UCHUN QISQACHA MA'LUMOT

Sankt-Peterburg
2019

MIGRATSIYA HISOBIGA QO'YILISHI

«Xususiy» kirish maqsadi bilan Rossiya Federatsiyasiga kirib kelgan MDH (CHГ) mamlakatlari fuqarolari, Rossiyaga kirib kelgan vaqtdan boshlab har 180 kunli muddati davomida Rossiyada 90 kundan ortiq turushlari mumkin.

Agar siz Rossiyaga ishlash uchun kelgan bo'lsangiz, «tashrif maqsadi» grafasida «ish» degan yozuv ko'rsatilishi kerak.

Chet el fuqarosi **Rossiya Federatsiyasiga kelgan paytidan boshlab 7 ish kunidan kechiktirmasdan** yashash joyi bo'yicha **migratsiya hisobiga qo'yilishi kerak**; Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi a'zo davlatlari fuqarolari (EAЭC) (Armaniston, Belorusiya, Qozog'iston va Qirg'iziston) - **30 kundan kechiktirmay**; Tojikiston Respublikasi fuqarolari - **15 kun ichida**.

Migratsiya hisobiga qo'yilish haqiqiy yashash manzili bo'yicha amalga oshiriladi.

Chet el fuqaroni migratsiya hisobiga qo'yilishini, sizga yashash joyni taqdim etadigan **Qabul qiluvchi** tomon amalga oshiradi - bu quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Sankt-Peterburgda doimiy ro'yxatdan o'tgan Rossiya Federatsiyasining fuqarosi;
- Sankt-Peterburgda doimiy yashovchi chet el fuqarosi;
- yuridik shaxs: ish beruvchi tashkilot, mehmonxona.

Migratsiya hisobiga qo'yilishi uchun quyidagilarga murojaat qilish mumkin:

- Rossiya Ichki ishlar vazirligining Sankt-Peterburg (ГУ МВД) va Leningrad viloyati bo'yicha Bosh boshqarmasi Migratsiya masalalari bo'yicha boshqarmasining hududiy bo'limiga (veb-sayt: 78.mvd.pф/ms)
- davlat xizmatlarini ko'rsatishning ko'p tarmoqli markaziga (МФЦ) (veb-sayt: gu.spb.ru/mfc; telefon 8 (812) 573-90-00)

Sizga quyidagi hujjatlar va ularning nusxalari kerak bo'ladi:

- pasport, pasportning barcha varaqlarining nusxasi;
- migratsion karta;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi;
- turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat nusxasi (masalan, ijara shartnomasi).

Migratsiya hisobiga qo'yilishi uchun quyidagi amaliyotlarni amalga oshirish kerak:

- Rossiya Ichki ishlar vazirligining Sankt-Peterburg (ГУ МВД) va Leningrad viloyati bo'yicha Bosh boshqarmasi Migratsiya masalalari bo'yicha boshqarmasiga yuboriladigan, chet el fuqarosining yashash joyiga kelishi to'g'risidagi maxsus xabarnoma-blankni **to'ldirish**;
- **hujjatlar qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yilgan, kelganligi haqida xabarnomaning yirtib olinadigan blankni olish va o'zingizda saqlash.**

- *Ishga joylashgandan so'ng, migratsiya hisobiga qo'yilganlikni mehnat shartnomasi yoki mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun to'langan patentning amal qilish muddatiga doimiy ravishda uzaytirish kerak.*

MEHNAT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN PATENTNI OLIISH

Yevrosiyo Ittifoqiga kirmagan MDH mamlakatlari - O'zbekiston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina fuqarolari - Sankt-Peterburgda qonuniy ishlash uchun mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent rasmiylashtirishi kerak.

Patent rasmiylashtirishga hujjatlar **Rossiya Federatsiyasiga kirib kelgan paytidan 30 kun** ichida taqdim etilishi kerak, aks holda 10000 rubldan 15000 rublgacha jarima to'lash kerak bo'ladi.

Sankt-Peterburgda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent olish uchun hujjatlarni qabul qiladigan yagona tashkilot bu «**Rossiya Ichki ishlar vazirligining pasport va viza xizmati**» **Federal davlat unitar korxonasi hisoblanadi** (ФГУП «Паспортно-визовый сервис»); Krasniy Tekstilshik ko'chasi, 15 uy, A lit. Telefon: 8 (812) 318-01-22, 8 (812) 318-01-18 Sayt: spb.psvmvd.ru Kompaniya xizmatlari pulli.

Sankt-Peterburgda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent Leningrad viloyati hududida amal qilmaydi.

Patent olish uchun hujjatlar **faqat SHAXSAN** topshirilishi mumkin. Patent ariza topshirilgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida rasmiylashtiriladi.

Patentni rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar kerak bo'ladi:

- patent berish haqida ariza (ariza shakli va uni to'ldirish namunasi Rossiya Ichki ishlar vazirligining Sankt-Peterburg (ГУ МВД) va Leningrad viloyati bo'yicha Bosh boshqarmasi Migratsiya masalalari bo'yicha boshqarmasining bo'limlarida yoki www.78.mvd.pф/ms saytida bepul olinishi mumkin);
- pasport va pasport nusxasi, shuningdek pasportning rus tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasini;
- 3x4 rangli matli fotosuratlar;
- migratsiya hisobiga qo'yilishi haqida xabarnoma va uning nusxasi;
- kirib kelishning maqsadi «ish» deb ko'rsatilgan migratsiya kartasi va uning nusxasi;
- tibbiy xulosa va OIV infeksiyasi yo'qligi to'g'risidagi shahodatnoma - maxsus tibbiyot muassasasida tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyin rasmiylashtiriladi;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС);
- rus tilini, Rossiya tarixini va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslarini bilganligini tasdiqlovchi hujjat: SSRI hududida 01.09.1991 y.g.a qadar yoki Rossiya hududida 01.09.1991 y.dan keyin ta'lim muassasasini tugatish to'g'risidagi hujjatning asl nusxasi, yoki rus tilini, Rossiya tarixini va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining asoslarini bilishini aniqlash bo'yicha testdan o'tkanligi haqidagi shahodatnoma.
- patent bo'yicha avans soliq to'lovi to'langanligi to'g'risida kvitansiya. 2019 yilda Sankt-Peterburgda to'lov miqdori oyiga 3800 rublni tashkil etadi.

Ishlash faqat patentda ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha mumkin. Boshqa mutaxassislik bo'yicha ishlagani uchun 4000 rubldan 7000 rublgacha jarima solinishi mumkin.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent olingandan keyin:

- har bir keyingi oy uchun 3800 rubl miqdorida jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lashda, patent avtomatik ravishda to'lanadigan muddatga uzaytiriladi. Oylarning hisoblanishi hujjatda ko'rsatilgan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent olingan kundan boshlab amalga oshiriladi. To'lov har bir to'langan ish oyining tugashidan kamida 1 kun oldin amalga oshiriladi. Patent to'lovini tasdiqlovchi cheklarni albatta o'zingizda saqlang!

Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent bo'yicha to'lovni patent olingan kundan boshlab 12 oydan oshmagan muddatga oldindan amalga oshirish mumkin.

- **patent olingandan so'ng, siz 2 oy ichida mehnat shartnomasi nusxasini Rossiya Ichki ishlar vazirligining Bosh boshqarmasi Migratsiya masalalari bo'yicha boshqarmasiga yuborishingiz kerak.**

■ *Migratsiya hisobiga qo'yilganlikni mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent asosida va patent to'langan muddatga uzaytirishni unutmang!*

Bir yil o'ishlab, siz Rossiya Federatsiyasidan chiqmasdan keyingi yil uchun patentni qayta ro'yxatdan o'tkazishingiz mumkin. Buning uchun «Rossiya Ichki ishlar vazirligining pasport va viza xizmati» Federal davlat unitar korxonasiga (Krasniy Tekstilshik ko'chasi, 15 uy, A lit.) patentning amal qilish muddati tugashidan kamida **10 ish kun oldin** murojaat qilish va quyidagilarni olib kelish kerak: amal qilish muddati 1 yildan kam bo'lmagan xorijiy pasport, amaldagi patent, patent 12 oy uchun to'langanligi haqida kvitansiya, migratsiya kartasi, mehnat shartnomasi va ish beruvchidan iltimosnoma. Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun patent 1 marta va 12 oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

MEHNAT QONUNCHILIGI

Ish qidirish uchun rasmiy vakansiyalar bazasidan foydalanishni tavsiya etamiz:

trudsem.ru - Rossiyada ishlash: Mehnat va bandlik bo'yicha Federal xizmatining butun Rossiya vakansiyalar bazasi

Ishga joylashtirilgan vaqtdan boshlab 3 ish kuni mobaynida siz ish beruvchi tomonidan imzolangan va muhrlangan mehnat shartnomasining nusxasini olishingiz majbursiz.

■ *To'liq ish bilan band bo'lgan ishchining ish haqi miqdori EKIИ (MPOT) (eng kam ish haqi)dan past bo'lmashligi kerak – 2019 yil 1 yanvar holatiga u Sankt-Peterburgda oyiga 18000 rublga teng bo'lgan.*

Odatda, ish haqi ishchiga bir oy ichida ikki qism bilan to'lanadi: avans to'lovi (oylik ish haqining yarmigacha) oyning o'talarigacha amalga oshiriladi, asosiy to'lov – odatda oyning oxirgi ish kunida, lekin keyingi oyning 14 kunidan kechiktirmasdan (Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining (TK PФ) 136 moddasiga muvofiq).